


“TASDIQLAYMAN”
“Adolat” milliy huquqiy
axborot markazi direktori
 F. Tojiyev
2022-yil “__”

TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ
(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga e'lon joylashtirish to'g'risida)

2022-yil 2-avgust

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodekslarini nashr etish masalasini ko'rib chiqish va e'lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari
va hujjatlari bo'yicha e'lon matni**

Tanlovga qo'yilayotgan xizmat turi:

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodekslarini kirill yozuvida chop etish.

Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:

1. Nashr etish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;

2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo'lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o'z texnik bazasiga ega bo'lish;

3. Belgilangan vazifalarini g'olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan mahsulot (kodeks)larni 10 (o'n) ish kuni davomida to'liq tayyorlab “Buyurtmachi”ga topshirish;

4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik xususida ariza taqdim etish;

5. Tanlovda g'olib chiqqan tashkilot (korxona) bilan Markaz o'rtaida rasmiylashtirilgan shartnomada ko'zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;

6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 7 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot, uning moliyaviy holati haqida ma'lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval).

Nashr etiladigan mahsulotning umumiy tavsiyi:

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodekslarining formati: 60x100, 1/16, qattiq muqova, buvinil, ichki sahifa oq qora, 70 gr ofset qog'ozni tashkil etadi.

№	Mahsulot nomi	adadi (dona)	Hajmi	Bir dona narx (QQS bilan)
1.	O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi	500	200 bet	76 000
2.	O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi	500	376 bet	98 000
3.	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi	500	432 bet	99 000
4.	O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi	500	240 bet	85 000

Buyurtmachi nomi: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Buyurtmachi mansabdon shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor F. Tojiyev Mirobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 19-uy. STIR: 201 453 166, 71 233-28-18

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: nashrning elektron maketi berilgach 10 (o‘n) kun.

Tanlov o‘tkazish manzili: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 19-uy.

Boshlanish muddati: 02.08.2022-yil

Tugallanish muddati: 08.08.2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 8-avgust.

Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

Tannarx, muddat, ko‘rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e’lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.

• Komissiya tomonidan xizmat ko‘rsatish sifatli va o‘z vaqtida bajarish bilan bog‘liq boshqa holatlар ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;

• Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov g‘olib aniqlanadi.

**Marketing, reklama
va obuna bo‘limi boshlig‘i**

Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i

**Mehnatni muhofaza qilish
va xo‘jalik ishlari mudiri**

**Rasmiy nashlarni va yuridik adabiyotlarni
tayyorlash va tahrir qilish bo‘limi boshlig‘i**

F. Kuldashev

M. Yerdashev

A. Tursunov

Sh. Abdullayev

02.08.2022-yil